

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "OROMKURSI" QISSASIDA YORDAMCHI PERSONAJLAR TAHLILI

Salimova Rayxona Burxon qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o'qitish

(o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: salimovarayxona00@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bosh qahramon atrofida birlashuvchi, uning xarakterini ochib berishga qodir obrazlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: bosh obraz, yordamchi personajlar, bosh qahramon xarakteri, badiiy obrazlar

Absrract: In the article, the characters surrounding the main protagonist and playing a key role in revealing his character are analyzed.

Key words: This study analyzed the main character, supporting characters, the protagonist's personality, and various artistic images presented in the work

Har bir badiiy asarda muallif o'z fikr va g'oyalarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Obraz- bu asardagi qahramonning xarakteri, fe'l-atvori, fikr va harakatlari orqali gavdalandirilgan badiiy timsolidir.

Asar voqealarining markazida turib, asar syujetini harakatga keltiradigan va oxirigacha rivojlantiradigan, asar bosh g'oyasini o'zida tashiydigan shaxslar-bosh obrazdir[1].

X.Do'stmuhammadning "Oromkursi" qissasi bosh qahramoni-Ko'klamali. U o'qish uchun qishloqdan shaharga kelib, rahmatli otasining obro'-hurmati tufayli talabalik baxtiga muyassar bo'lgan katta bir oilaning yolg'iz o'g'li. Asarda Ko'klamalining xarakterini ochib beruvchi bir nechta personajlar mavjud bo'lib, ular bosh obraz atrofida birlashadilar.

Badiiy asarda ma'lum bir g'oyani (asardagi bosh g'oyaning kichik bir bo'lagini) ifodalovchi, syujet davomida bir, ikki ko'zga ko'ringan obrazlar epizodik yoki yordamchi obrazlar deyiladi[2].

Forster yordamchi personajlar haqida quyidagicha yozadi: "Yordamchi personaj ko'pincha bosh qahramonning fazilatlarini ochib berishga xizmat qiladi-bu yoki qarama-qarshilik orqali, yoki uni to'ldirish orqali amalga oshadi"[3].

Ko'klamalining otasi, Janobali Tongotarov, amal kursisini, obro'-e'tiborni sevuvchi inson sifatida gavdalanadi. Ko'klamali bir necha bor o'zidagi amalparastlik illatini otasidan meros kasallik ekanligini o'z-o'ziga ta'kidlaydi: "Otamning ruhi-poklari!.. Otamdagi maslak-muhabbat!.. Mansab-u martabaga mutelik!..", "Otamdan meros kasallikmikan!?"

Asarda Janobali Tongotarovning obro'-e'tiborni sevishi bir necha bor ta'kidlangan. Xususan, u o'g'illi bo'lganida uning kelajakda yaxshi bir amal kursining egasi bo'lishini niyat qilganida, Ko'klamali otasi haqida onasidan so'rganida uning: "Otangning fikr-yodi idoradagi kursida edi.. Qizil suyanchiqli oromkursilarni senlardan, mendan ortiq ko'rar edilar, rahmatli...", deya bergan javobi ham fikrimizning isbotidir.

Ko'klamalining yangi mavzusi bo'yicha ilmiy rahbari Nazirov bo'lib, vaqtida u Janobali Tongotarov tufayli "odam bo'lib qolgan"lardan edi. Shu sababli uning har bir gap-so'zi, xatti-harakati mulozamatdek, qarzini uzayotgandek ifoda bor: "Hay, hay, hay, bir aytdingiz, qaytib og'zingizga olmang bu so'zni. Rahmatli Janobali akamiz o'g'lonlik bo'lganlarini eshitganda muborak etgali birinchi bo'lib yetib borganlardanmiz-a!.. Agar sizni kandidat qilolmasak u kishimning ruhi-poklari oldida kim degan odam bo'lamiz!"

Nazirov Ko'klamalini amalparastlik kabi "yuqumli kasallik"dan ogohlantirishni ham ma'qul ko'rib, uni xushyorlikka chorlaydi: "Har yigitga omad kulib boqadi, Ko'klamali... Avval bundayroq omad keladi, odam unga ko'nikadi, so'ng kattarog'i nasib etadi. Banogoh tushgan omaddan uncha-buncha odamning beli mayishib ketadi... Duppa-drust, es-xushini tanigan kishilar, masalan, arzimagan mansabni egallaydi-da ko'z ochib ko'rgan kursisiga qapishib oladi. Qapishib oldimi, bas, vazifasi, burchi bir yoqda qolib mansabidan ayrilmaslikni ko'zlaydi. Kursining etagini ko'ziga surtadigan odam hech qanday pastkashlikdan qaytmaydi..."

Domlanning to'satdan aytilgan bu nutqidan Ko'klamalining tabiatidagi mansab-u amalga o'chlik yaqqol ochib beriladi.

Keyingi yordamchi personaj-Niyozovich. Hammasi uning idorasidagi oromkursini ko'rish bilan boshlandi. Bu kursini birinchi bor ko'rgan bosh qahramonimiz: "Shu ofatijonni menga sovg'a qiling" degan tizginsiz maylini zo'rg'a jilovlagan edi.

Niyozovichning gah desa qo'lga qo'navermaganligi, Ko'klamaliga yaltoqlanib muomala qilmagani hamda Janobali Tongotarovni og'zidan bol tomib maqtamaganligi Ko'klamalining boshqa mavzu tanlashiga sabab bo'lgan, ehtimol. Buni Ko'klamali nutqidan keltirilgan parcha ham isbotlaydi: "Niyozovich bo'lmasa, mana, Nazirov bor".

Ko'klamning tabiatidagi qo'rslik, "ortiqcha" gapga toqati yo'qligi qorovul chol nutqidan anglashiladi: "Ha, bolam, yashayotganingga bir hafta bo'lyapti-yu, na salom bor, na alik. Miltiqning o'qiday kirasani-ketasani, chiqasani-ketasani. Qattan kegansan, o'zi? Kimning, qanaqa odamlarning farzandisan? Bundo-oq gaplashaylik, bo'tam..."

Bu savolga Ko'klamali sovuqqonlik bilan, qisqagina qilib: "Ishlar ko'p, vaqt ziq", deya javob berib qo'ya qoladi.

Asardagi yana bir yordamchi personajlardan biri-talabalarni ijaraga qo'yuvchi aya.Ko'klam oilali talabalar yotoqxonasiga ko'chib kelishidan avval shu ayanikida yashagan,ketish oldidan har kuni kelib turishini aytib,qop-qop va'da beradi.Yuz takallumlar bilan chaqirtirishdan so'ng domlasining huzuriga borgan Ko'klam bu yetti yod ayaning uyiga har kuni kelib turishiga uning o'zi ham ishonmagan bo'lsa ne ajab?Aya Ko'klamni ko'rishi bilan quvonib,uning atrofida girdikapalak bo'la ketadi.Uning xarakterida barcha onalarga xos mehribonlik va samimiyat bor:"Hay,menga qara!Voy,sho'ri-im ,ranging bir holatda bo'lib qopti-yu!Nima bo'ldi,o'zi?Kasal-pasalmasmisan?Hah,o'qishi boshshidan qosin-a,shunday bolani odamgarchilikdan chiqaradigan bo'lsa!..Haliyam kech emas, ket, onang aylansin, bolam, qishlog'ingga jo'na".

Adabiy asarlarda yordamchi personajlar muhim badiiy vositalardan biri bo'lib,ular syujet rivojida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.Ularning vazifasi faqat voqealarni to'ldirish emas,balki bosh qahramonning xarakterini ochib berish,ularning ichki kechinmalari,hayotga bo'lgan qarashlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.Yordamchi personajlar orqali ham adib o'z shaxsiy qarashlarini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda,yordamchi personajlarning nutqi,fe'l-atvori,xatti-harakatlari orqali kitobxon asardagi muhitni yaqqol tasavvur qiladi.Ular asarning mazmunan boyishi,obrazlar tiziming rang-barangligiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Umurov,H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.A.Qodiriy,Toshkent-2004.
- 2.Umrov,H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.A.Qodiriy,Toshkent-2004.
- 3.Forster,E.M.Aspects of the Novel.London:Edward Arnold-1927.
- 4.X.Davron kutubxonasi.<https://kh-davron.uz>.
- 5.Do'stmuhammad,X.Oromkursi.Sharq,Toshkent-2011.
- 6.Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Navoiy universiteti,Toshkent-2018.
- 7.Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.Noshir,Toshkent-2019.
- 8.<https://www.ziyouz.com>.
- 9.<https://kh-davron.uz>.